

SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI-JASORAT VA IBRAT NAMUNASI

Uzbekova Sadoqat Primovna

(Toshkent temir yo'l texnikumi yetakchi o'qituvchisi)

Abstract: In this article, Jaloliddin Manguberdi's personality, his liberation struggles against the Mongol invaders, some aspects of the war, victories and defeats, internal and external influences on the glory and decline of the Khorezmshah state, Jaloliddin as a great savior Thoughts on the history of the world and our country, the importance of Manguberdi in the education of the younger generation are described.

Keywords: Khorezmshah Alouddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Genghis Khan, Irgiz battle, brave hero of the Motherland.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi shaxsi, uning mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashlari, jangovar harakatlarining ayrim jihatlari, g'alabalari va mag'lubiyatlari, Xorazmshohlar davlatining shuhrati va tanazzulida ichki va tashqi ta'sirlar, buyuk najotkor sifatida Jaloliddin Manguberdining dunyo va yurtimiz tarixi, yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatiga doir fikrlar bayon qilingan.

Kalit sozlar: Xorazmshoh Alouddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Chingizzon, Irgiz jangi, Vatanning sheryurak bahodiri.

Аннотация: В данной статье личность Джалолиддина Мангуберди, его освободительная борьба против монгольских захватчиков, некоторые аспекты войны, победы и поражения, внутренние и внешние влияния на славу и упадок Хорезмского государства, Джалолиддин как великий спаситель История мира и нашей страны, описывается значение мужества Мангуберди в воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: Хорезмшах Алауддин Мухаммад, Джалолиддин Мангуберди, Чингисхан, Иргизская битва, отважный герой Родины.

Sulton Jaloliddin mardonialik maydonida
javlon qilmoq istadi va zamon gardishi
navosiga jo'r bo'lib, muxoliflik sho'basini
chalmoqlikni ixtiyor ayladi.

Mirzo Ulug'bek

Yurtimizning ko'p yillik beba ho tarixiga ko'z tashlar ekanmiz, el-yurtimizni bosqinchchi, yovuz kuchlardan himoya qilish, millatimizning mustaqilligi va erkinligini asrashdek buyuk ishda, kurashlarda matonat, mardlik, fidoiylik ko'rsatgan vatandoshlarimiz, sohibqironlarimiz, millatimiz ko'rki bo'lgan mardu-maydon o'g'lonlarimiz juda ko'p bo'lib, ularning borligidan faxr hislarini tuyamiz. O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini anglayotgan har bir odam o'z ajdodlari kimlar bo'lganini bilib olishga intiladi. O'z naslu nasabini bilish, kelib chiqishini o'rganish kishining hayotda omonat yo tasodifiy emasligini tushunishiga imkon beradi[1]. Ana shunday biz faxrlana oladigan ajdodimiz, Anushteginiylar sulolasining yorqin, mashhur va so'nggi vakili, kuchli siyosatdon, buyuk diplomat Jaloliddin Manguberdi edi. Sarkarda tug'ilgan Xorazm diyori O'zbekiston hududidagi qadimiy madaniyat maskanlaridan biri bo'lib, buning tasdig'i arxeologik

tadqiqotlarda ham, yozma ma'lumotlarda ham o'z aksini topgan; bu haqida qator ilmiy izlanishlar chop etilgan. Xorazmning geografik o'rni, Amudaryo etagida joylashganligi uzoq moziydan boshlab sug'orma dehqonchilik rivojlanishi, shaharlar barpo etilishi, davlat tashkil topishi, fan va madaniyat taraqqiy etishi uchun qulay imkoniyat yaratdi. Qadimgi Xorazm katta hududda yastangan bo'lib, Amudaryo etagida ikkala sohil bo'yab to Orol dengizigacha, g'arbda Kaspiy dengizigacha, janubda Xuroson yerlarigacha oraliqni o'z ichiga olgan.

Xorazm hukmdorlari tarixda xorazmshohlar nomi bilan mashhur bo'lganlar. O'rta asrlarda Xorazmda xorazmshohlarning to'rtta sulolasi davlatni boshqargan: Afrig'iylar (305-995); Ma'muniylar (995-1017); Oltintosh sulolasi (1017-1034); Anushteginlar sulolasi (1097- 1231). "Anushteginlar-Xorazmshohlar hukmdorligi chog'ida, xususan, XIII asr bosqlarida, Muhammad Xorazmshoh davrida Xorazm ulkan davlat maqomiga ega bo'ldi. Uning chegaralari Kaspiy dengizining shimoliy sohillaridan Fors qo'lting'igacha, Kavkazdan to Hindukush tog'larigacha yetgan edi. Katta hududda markazlashgan yirik siyosiy birlikning vujudga kelishi tufayli, davlatning siyosiy mavqeい ortdi, unda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar yuksaldi. Xo'jalikning turli sohalaridagi o'sish umumiy ihtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun omil bo'ldi. Movarounnahr va unga yondosh hududlarda Marv, Buxoro, Samarcand, Shosh, Xo'jand, Banokat, Balx, Kesh, Nasaf, Axsikat, Niso, Jand, O'tror, O'zgand, O'sh, Isfijob, Termiz, Taroz kabi shaharlarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin"[2]. "...Lekin Chingizzon boshliq mo'g'ul lashkarlarining 1219-yili Xorazmshoh Muhammad mamlakati hududiga bostirib kirishi va uni egallashi natijasida butun boshli gullab-yashnab turgan davlat vayronaga aylandi. Xorazmshoh Muhammad mag'lubiyatining asosiy sababi, harbiy mahorat bobida Chingizxonga nisbatan zaifligida edi. U lashkarini mayda qismlarga bo'lib shaharlarga taqsimlab joylashtirdi va o'g'li Jaloliddinning butun lashkarni bir joyga yig'ib dushman bilan yuzma-yuz urushmoq kerak, degan so'zlarini ham e'tiborga olmadi."[2]

Sulton Jaloliddin Manguberdi Chingizzon e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk sarkarda edi. Mo'g'ullar istibdodiga qarshi kurashgan bobokalonimiz nafaqat O'rta Osiyo, balki Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo, Kavkaz xalqlari tarixida muhim o'rinnegallaydi. Bor yo'gi 32 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan Jaloliddinning aniq tug'ilgan sanasi ma'lum emas, ammo uning tavalludi rasman 1198-yil deyiladi. Jaloliddin Manguberdi Xorazmshoh Alouddin Muhammad va malika Oychechaklarning to'ng'ich farzandi va voris shahzoda sifatida dunyoga kelgan. U yoshligidanoq turli xil masalalar bo'yicha o'z fikrini aniq isbotlay oladigan bo'lib tarbiyalandi. "...yoshligidan onasining tashabbusi bilan Kuzbor og'adan harbiy san'atni o'rganadi. Kuzbor og'a unga ot minishni, qilich o'ynatishni va kamondan o'q uzishni o'rgatadi." [3]. Jaloliddin Manguberdining onasi malika Oychechakgina xorazmlik bo'lib, qolgan barcha malikalar Xorazmshoh Alouddin Muhammadning onasi bo'lmish Turkon xotunning Dashti Qipqochlik jangari urug', qabilalari va saroy zodagonlariga mansub edilar. Shuningdek, ulardan tug'ilgan shahzodalar ona tomonidan turli qavmlarga daxldor edilar. Xuddi shu narsa Xorazmshoh Muhammad saroyida o'sib voyaga yetayotgan shahzodalar-Jaloliddin Manguberdi va uning inilari o'rtasida taxt talashuv, nizolar boshlanishini ta'minlagan asosiy omillardan edi. Jaloliddin yosh bo'lishiga qaramay, saroydagi ichki boshboshdoqlik harakatlarning barchasini sezар, bu holatlarning oldini olish yoki bularni to'xtatish mushkul vazifa ekanligini anglar edi.

Xorazmshoh Muhammad musulmon davlatlar hukmdorlari ichida buyuk sarkarda hisoblanar, u o'z vaqtida Qoraxitoy podshosi Go'rxonni yengib Movarounnahrdan haydab chiqargan va shu kabi ko'plab yurishlar orqali obro' qozongan, shu tufayli o'ziga "Iskandari Soniy" degan rutba olgan edi. Sulton Xorazmshoh o'z davrining kuchli lashkarboshisi sanalsada, ammo, u davlatdagagi ichki muhitni va saroydagi qipchoqlar ustunligini yenga olmadi.[4]. Sulolaning tarixiy udumlariga ko'ra katta o'g'il, shahzoda Jaloliddin Manguberdi qonuniy taxt vorisi bo'lsa-da, Turkon xotun o'zining saroydagi katta mavqeidan foydalanadi va vakolatini suiiste'mol qilgan holda Jaloliddinni taxt vorisligidan chetlashtirib, o'z qavmidan bo'lgan nabirasi Uzloqshohni taxt vorisligiga asosiy da'vogar sifatida qo'llab-quvvatlashi saltanatni inqiroz sari yetakladi. Bu nizo keyinchalik Chingizzonning Xorazmshohlar saltanatiga urush ochganda, uning g'alabalarini ta'minlagan asosiy omillardan biri bo'ldi. Ko'hna Urganch mudofaasini uyuştirishga tayinlangan Dashti Qipchoq sarkardalari ham mo'g'ullarning asosiy qo'shini poytaxtga yetib kelmasidanoq sotqinlik yo'liga o'tib, shahzoda Jaloliddinni o'ldirishga intilgan bo'lsalar, qolganlari o'z jonlarini omonda saqlash uchun ochishni afzal ko'rdilar. Jaloliddin Manguberdining uzoqni ko'rolmaydigan inilari ham iste'dodli sarkarda

og'asiga yordam berib, janggohda bir qatorda jang olib borish o'rniga buvisi malika Turkon xotunning maslahati bilan g'animlik yo'lini tanlaydilar.

"Jaloliddin 16 yoshidan boshlab otasi bilan harbiy safarlarga chiqqa boshlagan. Biroq, mo'g'ullar bilan to'qnashgan ilk jangida u 17 yoshda edi. Xorazmshoh Muhammad qo'shini Samarqanddan jo'nab Jand (Sirdaryoning quyi oqimida) orqali Irgiz daryosi (Qozog'iston To'rg'ay viloyati)ga yetishdi. Irgiz daryosi yaqinida 1216-yilning yozida Xorazmshoh Muhammad va Chingizxonning o'g'li Jo'jixon uchrashdi. Bu uchrashuv kutilmagan bir hol edi. Jo'jixon Xorazmshohga elchi yuborib: "Biz siz bilan jang qilmaymiz, ulug' xon (Chingizxon) siz bilan urushmoqni buyurmadi" degan xabarni yuboradi. Xorazmshoh Muhammad bunga javoban: "Agar Chingizxon sizlarga men bilan jang qilishni buyurmagan bo'lsa, Alloh taolo menga sizlar bilan jang qilishni buyurdi. Demak, jang qilamiz", deydi. Ana shu jangda Xorazmshohda 60 ming qo'shin mavjud bo'lib, u qo'shinni 3 qismga bo'ladi va ulardan biriga Jaloliddinni lashkarboshi qilib tayinlab, pistirmada turishini buyuradi. Irgiz jangida Xorazmshoh dushmanning siquviga dosh berolmaydi, uni Jaloliddinning xos lashkarlari bilan jangga kirib,dushmanga qaqshatqich zarba berishi qutqarib qoladi."[3].

Chingizxon boshliq mo'g'ullar yurtga bostirib kelayotganini eshitgach "...vasvasa shaytoni Jaloliddinning otasi Sulton Muhammad (Xorazmshoh)ning yuragiga qo'rquv va tahlikani shunchalik joylagan ediki, u o'zini son-sanoqsiz lashkarlardan chetga olib, hamda ular (lashkarlar) qo'lini uzatgan bo'sh turgan qochish uzangisiga oyog'in qo'yib, yerga (kirib ketish uchun) biror teshik na osmonga (uchish uchun) bir qanot izlardi. Totorlar (bilan jangdan) yuz o'girib Samarqandga kirib kelganda, uzoq yillar va zamonlardan buyon shunday bir paytga mo'ljallangan va ana shu kunlar uchun yig'ilgan son sanoqsiz lashkarlar va mardi-maydonlarni o'zgartirish va tarqatib yuborishga kirishdi; ularni to'rt tomonga tarqatib, turli joylarga taqsimlab mamlakatni himoya qilishga belgiladi. Uning yoshi ulug'roq, botir va matonatlari hamda shohlik boshi uzra toj (bo'la oladigan) o'g'illaridan Sulton Jaloliddin shu yerda otasining yonida edi xolos. U haqiqiy maqsaddan va to'g'ri uslubdan uzoq bo'lgan bu mulohazani inkor etardi va (shunday) derdi: «Lashkarlarni mamlakat bo'ylab to'zitish va bir joydan qo'zg'almay, g'animga qarshi turishdan yuz o'girish, bu aqlli sohib davlatning ishi bo'lmay, balki qandaydir bechorahollik alomatidir. Modomiki, sulton mardlarcha kurashga bel bog'lamoq kerak, degan qarorga kelmas ekan, u holda sanoqsiz lashkarlar ixtiyorini menga topshirsin. Toki fursat qo'ldan ketmasdan, oyoq hayrat va dahshat balchig'iga botmasdan, elning malomat og'zidagi chaynab tashlangan saqichga aylanmasdan, afsus-nadomat selida cho'kmasdan, oldinroq, o'tkinchi hayotning (ayanchli) hodisalarini bartaraf etishga va baxtsizliklarning chorasi topishga kirishaylik" [2]. Jaloliddin Manguberdi biror-bir davlat lashkarboshilarini bilan jangda mag'lubiyat nimaligini bilmagan Chingizxon va uning lashkarboshilarini Irg'iz daryosi sohili yaqinida va shuningdek, G'azna, Valiyon, Bomiyon hamda Parvon janglarida mag'lub eta oldi. Parvondagi qirg'in jangda Sulton Jaloliddin qo'shini g'olib chiqdi. Chingizxon yasoq jazosini qo'llab, har o'n kishidan bittasini o'lim jazosiga torttirdi. Ammo bu usul ham naf bermaydi. Mashhur sarkardalardan birontasi Sulton Jaloliddinni mag'lub qilishning uddasidan chiqolmagach, jamiki qo'shinini saflab Chingizxonning o'zi Jaloliddinni ta'qib qilishga kirishdi. Parvon jangida ko'plab jangchilaridan ajralgan Sulton Jaloliddin qo'shini yana bir fojia yuz beradi. Hazora maligi Sayfiddin Ag'roq, A'zam Malik sardorlar uning qo'shinini tashlab Singiron tog'lari tarafidagi qal'alardan biri tomon ketdilar. Ammo biroz keyin ularni Chingizxon qirib tashlashga muvaffaq bo'ldi. Sardor Maliklar ajralib ketishi natijasida Sulton Jaloliddin qo'shini zaiflashib qoldi. Bundan foydalangan Chingizxonning o'zi barcha qo'shingga bosh bo'lib, Jaloliddin qo'shinini ta'qib qilishga kirishdi. Kuchlar nisbatiga ko'ra Chingizxon qo'shini Jaloliddin qo'shinidan o'n-o'n besh barobarida ustunlikka ega bo'lgan. Natijada Sulton Jaloliddin Hindga tomon chekinishdan o'zga iloji qolmadi. Ammo, Sind daryosidan qo'shinni narigi sohilga o'tkazib ulgurmasdan yashin tezligida Chingizxon son-sanoqsiz qo'shini bilan yetib kelib Sulton qo'shini uch tarafdan o'rabi oladi.

Bu voqealarda 1221 yilning noyabr oyi oxirida sodir bo'lgan edi. Qurshab olingan maydon Nilab nomi bilan tarixga kirgan. Bu jang o'rta asrlar davrining eng qirg'inli va qon to'kishli janglaridan bo'lgan. Bu holatni Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" nomli asarida shunday yoritgan edi: "Chingizxon bu yerda shunday lashkar yig'diki, daryo o'q, askarlar esa kamon edi. Lashkar yoniga lashkar qo'shilib Sulton qo'shini yo'lini to'sdilar. Sulton Jaloliddin bin Sulton Muhammad Xorazmshoh o'zini suv va olov o'rtasida ko'rdi, chunonchi bir tarafida keskir qilichlar olov sochardi, boshqa tarafdan esa qonxo'r, yutag'on daryo

hayqirib oqardi. Hech bir tomondan chiqib ketishning aslo iloji yo'q edi. Noiloj jangga kirishdi. Bahodirlik otini kurash maydoniga solib, totor kofirlaridan ko'plarini halokat domiga qordi va hech bir kulfatsiz jang qildiki, agar Rustami doston tirik bo'lganida, unga bo'lgan muhabbat yopinchig'ini Jaloliddin yelkasiga solgan bo'lardi. Agar Kumushtan Isfandiyor bu jangni mushohada qilganida, uning xizmatida qullik lavozimini jonu dil bilan qabul qilgan bo'lardi. ...Qaysi tomonga ot choptirmas, tuproqni qonga bo'yar edi. Agar bu jangni Zolning o'g'li ko'rganida edi, u Sulton Jaloliddinning qo'lini o'pgan bo'lardi”[5]. Chingizzon Sulton Jaloliddinning jang maydoni va daryodan sherdek suzib o'tishini kuzatib turganidan so'ng yonida turgan o'g'illariga o'girilib: “Mana shunday o'g'illarga ega bo'lgan ota naqadar baxtlidir! U suv va olov kabi ikki balo qazo girdobidan o'zini qutqarib, sohilga chiqdi. U hali bizning boshimizga juda katta balolarni soladi. Uning qarshisida aqlli odam qanday qilib g'ofil qola oladi?” – degan.

Uning bu g'alabalaridan Chingizzon vahimaga tushdi. Xitoy, Mo'g'ul hududlari va Sharqiy Turkistonda qayta-qayta yalpi safarbarlik o'tkazib, qirib ado qilib bo'lmas son-sanoqsiz qo'shinni kam sonli Sulton Jaloliddin qo'shiniga qarshi jangga tashladı. Ana shu ustunlik tufayligina o'z g'alabasini ta'minlashga oxir-oqibat erishdi. Biroq Chingizzon ashaddiy g'animi bo'lgan Sulton Jaloliddinga tan berdi, uning mislsiz lashkarboshilagini e'tirof etgan edi.

Taqdirning yozug'ini ko'ringki, Sulton Jaloliddin qancha qirg'inbarot janglarda emas, balki bir kurd mal'uni tomonidan o'ldirildi. “...Totorlar mazkur qishloqda(bu yerda Mayoforiqin yaqinidagn Ayn-Dar qishlog'i nazarda tutilgan. Mayoforiqin Turkiyaning janubi-sharqidagi shahar)[2] Sultonga hujum qilgan chog'da, uning asir olingan hamrohlari, Sultonning ham shu yerda bo'lganligi haqida totorlarga xabar berdilar. Totorlar o'sha zahoti uning iziga tushdilar va o'n beshta otliqni uning ortidan jo'natdilar. Ulardan ikkitasi yetib bordi, biroq Sulton ularni halok etdi. Qolganlari esa, uni tutishdan ojizlik qilib orqaga gaytdilar.

Shundan so'ng, Sulton toqqa ko'tarildi, u yerda kurdlar o'lja kutib, yo'lto'sarlik qillardilar. Ular xuddi boshqalarni talaganday, Sultonni ham taladilar va o'ldirmoqchi bo'lganlarida, (Sulton) ularning boshlig'iga: «Men haqiqatdan ham sultonman va meni o'ldirishga shoshilma. Sen uchun ikkita qulay imkoniyat bor: meni Malik al-Muzaffar Shihobiddin huzuriga eltgil, u seni arzigulik taqdirlaydi. Yoki bo'lmasa, meni o'zimga qarashli biror viloyatga jo'natgil, u holda sen hokim etib tayinlanasan»-dedi. U kishi (Sultonni) o'z yurtiga yubormoqqa rozi bo'ldi va qishlog'iga olib borib, o'z uyda qoldirdi: o'zi esa toqqa ot olib kelish uchun ketdi. Shu payt bir beburd, ovsar kurd qo'lida nayza bilan kirib keldi va uy bekasiga: «Bu xorazmlik kim bo'ldi yana? Nega sizlar uni o'ldirmadingiz?-deb dag'dag'a qildi. Uy bekasi unga: "Sen yo'lingdan qolma, mening erim unga rahm-shafqat qildi, chunki u sulton ekan"- dedi. Kurd unga qarab: «Sizlar uning, men sultonman, degan so'ziga ishondingizmi? Xilotda mening akam halok bo'ldi, u bundan (ming chandon) afzalroq edi»— dedi. Shundan so'ng, u nayzasi bilan bir urib (Sultonni) halok qildi va ruhini boqiy dunyo sari jo'natdi. Shu tarzda qaroqchi o'z boshlig'ini ham ko'zga ilmay, tuproqni muqaddas qon bilan lolarang qildi. Bu hodisa tufayli zamona bag'ri tilka-pora bo'ldi, taqdir sharbati to'kildi: din va diyonat bayroqlari tushirildi, musulmonchilik imorati barbod bo'ldi. Chaqmoqlarini din o'g'lonlari mushohada etgan va xudosizlaru ko'rnamaklar qilichidan dahshatga tushgan osmon (go'yo) parchalanib ketdi”[2]. An-Nasaviy ta'biri bilan aytganda: “Haqiqatan, bu iflos, razil kimsa(kurd) o'z qilmishi bilan eng katta baxtsizlik keltirib chiqardi, Olamni Jaloliddinsiz yetim qoldirdi.

Ey g'animplar bo'g'zidan qon tirqiratuvchi! O'zingku o'lding, oqizding yosh o'rniga qon. Charxi kajraftor uning mahobatini namoyon qilsa, Islom olami davlatlari holiga bir boq endi.

Anglarsan nihol: Islom tayanchidan mosuvo,

Davlatlar kunpayakun, shuhrat yulduzi so'ndi.

An-Nasaviy Sulton Jaloliddin Manguberdiga shunday baho bergan edi: “Uning mardligi, jasurligiga kelsak uning janglardagi faoliyatini eslab o'tishning o'zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rmas chavondoz, lashkarlar orasida eng botiri edi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi”[2].

Xulosa shuki, o'rta asrlarda yurtimizdan odil hukmdor, mashhur va jasur yurt o'g'loni sifatida Sulton Jaloliddin, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz yetishib chiqdiki, ular bizning o'tmish-tariximiz va buyuk kelajagimizning barcha davrlari uchun faxr va g'ururdir. Buyuk bobokalonlarimizning bosib o'tgan sharafga to'la ibratli hayot yo'li biz uchun jasorat namunasi bo'libgina qolmay, millatimiz va xalqimiz, shuningdek, yosh kelajak avlodimizning o'zligini anglashga undovchi

qudratli omildir. Sulton Jaloliddinning kurash va hayot yo'li mardlik va jasoratda nafaqat yurtimiz yoshlari, xalqimiz va ozodlik hamda mustaqillikning tom ma'noda qadriga yetuvchi bashariyat uchun ibrat ramzidir. Uning Vatan mustaqilligi yo'lidagi so'nmas va betimsol jasorati mardlikning eng sarbaland etalon makonidir. Shuningdek, mardu maydonlik sarchashmasi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev N. Tarix falsafasi.-Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 1999, -19 b.
2. Bo'riyev. O.,Toshev N. Jaloliddin Manguberdi (Davri. Sarkardalik faoliyati. Manbalar). Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1999, -12-13 b,-16 b , -47 b
3. Sodiqov. H. Sulton Jaloliddin Manguberdi T.:Art FLEX 2009. -4 b, 10-11 b
4. Tolipova M.G., Fattoyev Sh.Yo. Jaloliddin Manguberdi o'z vatanining sodiq o'g'loni// "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5., - 950 b.
5. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1994, -182 b.